

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**


Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.512.133'415

MATNING STATISTIK TAHLILI
СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕКСТА
STATISTICAL ANALYSIS OF TEXT

Abdupattoyev Muhammadtohir Tojimatovich 
Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori.

Аннотация

Maqolada matnni statistik tahlil qilishda belgi (so'z yoki birkimalar)ning takrorlanish chastotasi, shuningdek, hodisaning namoyon bo'lish chastotasiga e'tibor berishi, voqea-hodisa yoki belgining yuzaga chiqish chastotasi - bu voqelikning ifodalanish shakli bo'lib, u matnda aniqlanishi va ma'lum bir takrorlanish miqdorini belgilash uchun asos bo'lishi, voqea-hodisa yoki belgilarni ifoda etuvchi til yoki nutq birliklari u yoki bu formada takrorlanib qo'llanishi tabiiy hol ekanligi, ana shu takrorlanishlar so'zlarni matnda dominant belgiga aylantirishi. Chastota tushunchasi, (sinonimlari: chastotasi, zichligi, takrorlanishi), shuningdek, dominant so'zlarning va boshqa matnga badiiy estetik ta'sir hamda emotsional ekspressiv bo'yoq beruvchi (badiiy matnlarda) ta'siriy va tasviriy vositalarning belgilangan vaqt oralig'ida yuzaga chiqishi va belgilangan bo'shliqda harakat joylarining o'zgarishining miqdoriy ifoda etishi, boshqacha qilib aytganda, statistik tahlil chastotalar taqsimlanishining ma'lum bir xususiyatiga ko'ra necha marta va qaysi o'rinlarda yuzaga chiqishiga ko'proq e'tibor qaratish lozimligi, ma'lumotlarning statistik tahlili deganda, o'quvchini qiziqtirgan ma'lumotlarning ma'lum bir vaqt davomiyligida qanchalik takrorlanishi yuzaga chiqishi tushunilishi, intuitiv bilim yoki intuitiv statistik hisoblash ko'p chastotali empirik maydonga asoslanishi, shuningdek matnning statistik tahlilida qanday usullardan foydalanish lozimligi haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос при статистическом анализе текста уделят внимание частоте повторения символа (слова или сочетания), а также частоте появления события, частота встречаемости события или символа, форма выражения действительности, которая определяется в тексте и что она является основой определения количества повторений, что естественно, что язык или речевые единицы, выражающие события или знаки, повторяются в той или иной форме, что эти повторы превращение слов в доминантный знак в тексте, понятие частоты, (синонимы: частотность, плотность, повторение), а также появление доминантных слов и выразительно-описательных средств, придающих художественно-эстетический эффект и эмоционально-выразительную окраску другим текстам. (в художественных текстах) в заданном временном интервале и количественном выражении смены мест движения в заданном пространстве, иными словами, при статистическом анализе следует больше внимания уделять тому, сколько раз и в каких местах оно происходит по определенному. Характеристика частотного распределения данных. Под статистическим анализом понимаются, сколько информации, интересующей читателя, происходит за определенный период времени, интуитивное знание или интуитивный статистический расчет основаны также на многочастотном эмпирическом поле, а также в качестве информации о том, какие методы следует использовать при статистическом анализе текста.

Abstract

The article discusses the issue of statistical analysis of text, paying attention to the frequency of repetition of a symbol (word or combination), as well as the frequency of occurrence of an event, the frequency of occurrence of an event or symbol, a form of expression of reality that is defined in the text and that it is the basis for determining the number of repetitions, that it is natural that language or speech units expressing events or signs are repeated in one form or another, that these repetitions turn words into a dominant sign in the text, concept frequencies (synonyms: frequency, density, repetition), as well as the appearance of dominant words and expressive and descriptive means that give an artistic and aesthetic effect and an emotionally expressive coloring to other texts. (in literary texts) in a given time interval and quantitative expression of changes in places of movement in a given space, in other words, in statistical analysis more attention should be paid to how many times and in what places it occurs according to a certain characteristic of the frequency distribution of data. Statistical analysis refers to how much information of interest to the reader occurs in a certain period of time, intuitive knowledge or intuitive statistical calculation is also based on a multi-frequency empirical field, as well as information about what methods should be used in statistical text analysis.

Kalit so'zlar: statistika, lingvostatistika, chastota, metod, sinonimiya, intuitiv statistika, konseptual soha, konseptual maydon, miqdoriy ifoda, atribut.

Ключевые слова: статистика, лингвостатистика, частота, метод, синонимия, интуитивная статистика, концептуальное направление, концептуальное поле, количественное выражение, атрибут.

Key words: statistics, linguistic statistics, frequency, method, synonymy, intuitive statistics, conceptual direction, conceptual field, quantitative expression, attribute.

KIRISH

Matni o'rganishning yana bir usuli – lingvostatistik usul hisoblanadi. Matni tadqiq qilishda statistik metodlardan foydalanilar ekan, bunday metodlar muayyan bir matnda so'z yoki ibora, bo'g'in yoki gap singari til birliklarining qo'llanishida o'ziga xos qonuniyatlarni aniqlashga qaratiladi. Statistika atamasi keng ma'noda ma'lum bir hodisaning ma'lum bir makonda namoyon bo'lishining miqdoriy ifodasi sifatida tushuniladi. Statistik makon deganda qaysidir ma'noda belgilab olingan obyektlar majmuasi tushuniladi: odamlar, harakatlar, hodisalar, fikrlar, shu jumladan matn ham. Boshqacha qilib aytganda, statistik maydon deb ataladigan bu hodisalarning ma'lum bir tizimida aynan o'sha tadqiqotchi tomonidan tanlab olingan va uni qiziqtirgan voqea-hodisalar tushuniladi.

Masalan, jamiyatda qancha o'g'il va qiz tug'ilishi, qancha nikoh va ajralishlar munosabati, kasalliklar, tabiiy ofatlar va ularning odamlarga ta'siri va hokazo. Bu kabi holatlarda kontentni tahlil qilish uchun u yoki bu obyektning jamiyat uchun qanchalik muhim ahamiyatga egaligi, ularning miqdori, tarkibi kabilarga e'tibor qaratiladi.

Prinsipial jihatdan statistika nima ekanligi bo'yicha ko'p ta'riflar mavjud. Bu, birinchi navbatda, statistika inson hayotining qaysi sohalarida ishlatilgani, qanday muammolarni hal qilish uchun xizmat qilishi bilan chambarchas bog'liq. Tabiiyki, har bir faoliyat turi statistikaga qo'yilayotgan mavzusi va obyekt, maqsadi nuqtai murojaat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'pchilik statistikani faqat statistik faktlarni taqdim etish bilan shug'ullanadigan fan deb tushunadi. Shuningdek, statistika hodisalarning statistik taqsimoti haqidagi fan ekanligi ham ta'kidlanadi [1]. Statistikaning vazifasi ma'lum bir bir hodisaning raqamli nisbatlarini va boshqa miqdoriy belgilarini o'rganishdan iborat ekanligi juda keng tarqalgan [2], shunisi qiziqki, statistika, ayniqsa, ijtimoiy va tabiiy fanlarda tadqiqotning asosiy usuli sifatida qaraladi [4].

Aniq biror bir fan bilimlar olamining keng doirasidan tashqarida mavjud emasligi aniq bo'lsa-da, statistikani boshqa fanlar doirasida umuman qo'llanilmaydigan, boshqa fanlarning ilmiy xulosalariga tadbiiq etilmaydigan fan deb tushunavchilar ham uchraydi. Ammo boshqa fanlar doirasida ma'lum bir xulosalarga kelishda statistik metodlarga tayanish juda ham zarur bo'ladi, chunki u ma'lum bir fanning mazmunini belgilashda xulosalarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishga imkon beradi. Bundan tashqari xulosalardagi "kerakli-keraksiz" informatsiyalarni ajratib olishga ham yordam beradi [5].

NATIJA VA MUHOKAMA

Statistikaga berilgan bunday ta'rif va tavsiflardan so'ng tabiiy ravishda bir savol tug'iladi: agar statistika "... haqidagi fan" bo'lsa, yoki statistika "statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish" bilan shug'ullansa, agar uning xulosalari olamning turli sohalar muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lsa, unda uning o'zi nimani anglatadi. Bu "qora quti" ga o'xshaydi, u yerda kirish va chiqish joylari ma'lum, ammo ichkarida nima borligi noma'lum. Ammo bu qora qutining ba'zi xususiyatlari ma'lum. Statistika, umumiy ma'noda, ma'lumotnomalarda va o'quv qo'llanmalarida aytilganidek, bilimning maxsus tarmog'i hisoblanadi. Axborot to'plash masalalari - bu boshqa fanlarda ham teng ishlatiladigan va ishlatilishi mumkin bo'lgan, o'z uslublari va qoidalariga ega bo'lgan alohida mustaqil bilim sohasidir. Bu masala o'lchovlar va tahlillar bilan shug'ullanuvchi katta va mustaqil bilim sohalariga ham tegishli. Lekin statistika bulardan tashqari materiallarni o'rganish va qayta ishlash metodologiyasini ishlab chiqadi: ommaviy statistik kuzatuvlar, guruhlash usuli, o'rtacha qiymatlar, indekslar kabi asosiy masalalar bilan ham shug'ullanadi [1,76].

Statistik tahlil ko'plab tipik muammolarni hal qilish uchun qo'llaniladigan turli tadqiqot usullariga ega. Asosan, kutilmagan vazifalarning paydo bo'lishi boshqa yangi metodlarni shakllantirishi yoki ma'lum metodlarni izohlashni talab qiladi. Ammo ularning har biri doimo statistika deb ataladigan umumiy maxsus bilimlar asosida yaratiladi.

Statistikaning rivojlanishi uchun uni yangi usullar bilan boyitish statistik tahlilning yangi turlari paydo bo'lishiga va hayotning barcha yangi sohalariga tarqalishiga olib kelishi aniq. Shuning uchun matn statistik tahlil uchun nisbatan yangi maydon hisoblanadi. Shu sababli, matni tahlil

TILSHUNOSLIK

qilishda barcha statistik metodik usullardan foydalanib bo'lmazligi mumkin, matnni tahlil qilish jarayonida ularning ba'zilari o'zgartirilishi yoki yangilari ixtiro qilinishi kerak [2:27].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, statistika haqiqatni anglash juda muhim vosita bo'lib, bundan tashqari, uning inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida qo'llanilishi ham turlicha bo'lishi mumkin. Ammo statistika boshqa sohalariga nisbatan har safar u o'z tadqiqot usullarini qo'llashning o'ziga yangi metodlarini. Statistik tahlilni hayotning turli sohalariga tatbiq etish uchun statistikaning o'zi ham har safar yangi bilimlar bilan boyitib boriladi va o'zi uchun ham, boshqa sohalar uchun ham hodisalarning miqdoriy tahlili orqali bilishning yangi qirralarini ochadi. Xususan, matnning statistik tahlilida ham o'ziga xos yondashuvlarga ega. Amalda kontent-tahlil doirasida tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan jihatlar bo'yicha matnning xususiyatlarini tahlil qilish uchun mavjud bo'lgan barcha uslubiy metodlardan foydalanishi mumkin. Lekin mavjud usullarni tanlash va tahlil jarayoniga tatbiq etishda tadqiqotchi xato qilishi mumkin. Matnning statistik tahlili uchun eng mos bo'lgan usullarni tanlay bilish maqsadga muvofiqdir. Oxir-oqibat, hamma narsa tadqiqot obyektining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ular statistik tahlil usullarining bir nechtasidan foydalanishni va har bir matn statistik tahlilda o'ziga xos yondashuvni talab qiladi [3,25].

Statistika matnni tahlil qilishda belgi (so'z yoki birikmalari)ning takrorlanish chastotasi, shuningdek, hodisaning namoyon bo'lish chastotasiga e'tibor beradi. Voqea-hodisa yoki belgining yuzaga chiqish chastotasi - bu voqelikning ifodalanish shakli bo'lib, u matnda aniqlanadi va ma'lum bir takrorlanish miqdorini belgilaydi. Agar voqea-hodisalar vaqti-vaqti bilan takrorlanib tursa va biz uni har qanday vaziyatda tekshirsak, shu voqea-hodisa yoki belgilarni ifoda etuvchi til yoki nutq birliklari u yoki bu formada takrorlanib qo'llanishi tabiiy holdir. Ana shu takrorlanishlar so'zlarni matnda dominant belgiga aylantiradi.

Ma'lumki, axborotni tahlil qilish har doim statistik bo'lgan. Bu shuni anglatadiki, kishilarning qiziqishlari, ular uchun axborotda taqdim etilayotgan xabarlarining qaysi biri muhimligi va axborotning kim tomonidan nima maqsadda berilayotganiga ham e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham ma'lumotlarning statistik tahlili deganda, o'quvchini qiziqtirgan ma'lumotlarning ma'lum bir vaqt davomiyligida qanchalik takrorlanishi yuzaga chiqishi tushuniladi.

Chastota tushunchasi, (sinonimlari: chastota, zichlik, tez-tez), belgilangan vaqt oralig'ida belgining yuzaga chiqishi va belgilangan bo'shliqda harakat joylarining o'zgarishining miqdoriy ifodasidir [4,7]. Boshqacha qilib aytganda, statistik tahlil chastotalar taqsimlanishining ma'lum bir xususiyatiga ko'ra necha marta va qaysi o'rinlarda yuzaga chiqishiga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu belginafaqat nafaqat yuzaga chiqishi, balki birinchi navbatda zamon va makonga nisbatan namoyon bo'lishi muhimdir.

Intuitiv bilim yoki intuitiv statistik hisoblash ko'p chastotali empirik maydonga asoslangan. Matnni tahlil qilish maxsus yo'nalish sifatida matn tarkibini tahlil qilish, matndagi kengayish birliklarini matematik tarzda hisoblash va raqamlar bilan ifodalash bilangina chegaralanmaydi [4,7]. Ana shu aniqlangan miqdorlarni tahlilga tortish orqali o'zining lingvostatistik xulosalarini ham beradi. Kontent-tahlil tufayli matnni chuqur statistik tahlil qilish imkoniyatlari cheksiz. Statistlar faqat matematik va statistik apparatni ishlab chiqish va insonlar ehtiyojlari nuqtai nazaridan voqea-hodisa yoki obyektlarni tahlilga tortadilar. Lingvostatistika esa, matn tarkibi va uning birliklarining miqdoriy belgilariga urg'u beradi.

Biror kishi matnni diqqat bilan o'qiyotganda, u ko'pincha intuitiv ravishda matnda qanday muhim hodisa muhokama qilinayotganligiga diqqat qaratadi va shunga ko'ra xulosa chiqarishga harakat qiladi. Matn xoh siyosat, xoh ilm yoki muhabbat haqida bo'lsin, o'quvchi ma'lum bir belgilarning chastotali taqsimotini o'rnatishga harakat qiladi va shu bilan xulosaga keladi. Keyinchalik, muallifning mazmuniy bayonidan boshlab, o'zining semantik talqinini matn yoki uning bir qismi bo'ylab chastotani taqsimlash orqali o'z maqsadini amalga oshirishi mumkin. Shunday qilib, matndagi voqea-hodisa yoki ularning belgilari o'zgarishini chastotali tavsiflashda prinsipial ravishda yangi sahifa ochiladi va shuning uchun ham empirik tahlil tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq reallashadi.

Kontent tahlil atamasi aslida bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan ikkita operatsiya - vazifalar va tadqiqot usullarini birlashtiradi. Biroq, bu miqdoriy tahlilga asoslangan bo'lib, uning vazifasi faqat bitta - tadqiqotchining maqsadi namoyon bo'lishi chastotasini foizda yoki nisbiy o'zgarishda aniqlashdan iborat [5,186]. Miqdoriy tahlilning vazifasi ham matnni tahlil qilishning ikki turini

ko'rsatish mumkin. Birinchisi, shuni anglatadiki, matn hech bo'lmaganda tadqiqotchining qiziqishi va maqsadi nuqtai nazaridan chastotalarni tahlil qilish demakdir. Ikkinchisi, agar belgi shunchaki mavjud bo'lsa (biz uning har qanday chastotasi haqida gapirmasak, uning shunchaki mavjudligiga e'tibor qaratsak ham), matn ushbu elementni o'z ichiga olgan borliq obyektiga aylanadi va shuning uchun tahlil jarayonida butunlay boshqacha yondashuvni talab qiladi.

Endi "belgi" tushunchasining ma'no tuzilishini ko'rib chiqamiz. So'z, yuqorida aytib o'tganimizdek, ba'zi obyekt yoki holatlarni konseptual ravishda tavsiflaydi va uni ramz bilan belgilaydi, shuning uchun biz ushbu konsepsiyaning tuzilishini va atributning o'z konsepsiyasi sifatida ko'rib chiqamiz. "Belgi" so'zining sinonimlari quyidagilardir: xususiyat, sifat, belgi, alomat, dominant, asos, farq, ko'rsatkich, o'lchov. Bu o'rinda sinonimlarning uchta guruhini mazmuniga ko'ra uning muhim ifodasi, aniqrog'i eng muhim ma'noni ifodalash darajasiga qarab ajratish mumkin. Birinchi guruh: dominant, belgi, sifat, asos - bular hodisa tarkibidagi belgining asosiy muhim xususiyatlarini ta'riflaydi. Boshqacha qilib aytganda, tushunchaning muhim xususiyatlarini tavsiflaydi, matnni maxsus talqin qilishda dominant vazifasini bajaradi.

Ikkinchi guruh: xususiyat, ko'rsatkich, o'lchov, atribut - bular belgining xususiyatlarni tavsiflaydi, ammo, eng muhimlarini emas. Ularning har biri, u yoki bu maxsus talqin uchun asos bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Demak, atribut so'zi, qandaydir ma'noga ega mustaqil belgi sifatida qabul qilinsa, ba'zi hollarda juda muhim semantik talqinni amalga oshirishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida matnni mazmunli tahlil qilishga boshqacha yondashuvni talab qilishi mumkin.

Uchinchi guruh: belgi, alomat, farq so'zlari - matnda berilgan hodisaning asosiy xususiyatlarini emas, balki faqat o'ziga xos keyingi (2-darajali) belgilarini tavsiflaydi. Ammo ular muayyan muammolarni hal qilishda talqin qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. To'g'ri, bu holda ularni juda ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak, shunda matnning asosiy va shu bilan birga asosiy bo'lmagan mazmuni, ma'lum xususiyatlari ham yo'qolib ketmaydi. Shuning uchun ushbu sinonimlarning har biri o'ziga xos mohiyatga ega bo'lib, o'ziga xos konseptual sohani alohida-alohida vaziyatda tavsiflaydi. Ammo umumiy semantik ta'rif doirasida ushbu sinonimlarning har biri o'ziga xos tarkibga ega bo'ladi, ya'ni mazkur semantik makonni to'liq yoki qisman tavsiflaydi. Aniqrog'i qilib aytganda, sinonimning keng yoki tor ma'nolari faqat semantik kontekst tarkibiga kiradi, boshqa ma'nosi, ko'pincha, kontekstning chegaralaridan tashqarida qoladi [5:197]. Shunday holat ham kuzatiladiki, matnning asosiy mazmunini tahlil qilish uchun ular, umuman, boshqacha chegara chizig'ini, konseptual maydonni tavsiflovchi semantik tushunchalar (ko'pincha ikkinchi va uchinchi darajali sinonimlar) sifatida qabul qilinadi.

Konseptual maydonda o'z konseptual kontekstiga ega bo'lgan kalit so'z mavjud bo'ladi va u birinchi va ikkinchi darajali sinonimlar ko'rinishida taqdim etiladi. Keyingi konseptual shakllanishlar kalit so'z bilan bog'liq bo'ladi, kontekst u bilan aloqani qanchalik ko'p yo'qotsa, matn kamroq tarqalgan konseptual xususiyatlarga (elementlarga) ega bo'ladi. Matnni tahlil qilishda asosiy elementlarning sinonimlari ko'pincha kalit so'z sifatida ishlatiladi. Va tabiiy ravishda, asosiy konseptual so'zga matn mazmuni qanchalik yaqin bo'lsa, konsepsiya aloqasi shunchalik kuchayadi. Xususan, mazmun doirasi(maydoni) birinchi va ikkinchi darajadagi sinonimlar guruhini aniqlaydi. O'zaro munosabatlar tufayli, umumiy xususiyatlar, turli xil konseptual shakllanishlar orqali bir konseptual maydon yoki kontekst doirasidan boshqasiga o'tish va shu bilan konseptual makon bo'ylab kezish, bu bilan konseptual olamning eng uzoq burchaklarigacha yetib borish nisbatan oson. Masalan, "Bahor" konseptual maydonidan "Yoz", "Kuz" konseptual maydonlariga o'tish mumkin.

Zarur hollarda bunday o'tishni modellashtirish, hisoblash, shu jumladan, o'tish jarayonining murakkab va uzoq yo'lini, o'zaro bog'langan va kesishgan xususiyatlarini matematik usul yordamida hisoblash mumkin. Bu kofe har qanday modellashtirish, loyihalash, rejalashtirish va hattoki bashorat qilish tamoyillarining asosidir. Matematika, bu holda, faqat tadqiqotchi tomonidan taklif qilingan gipotezalarini standart usullar (xususan, har xil formulalar) bilan hisoblaydigan raqamli apparat vazifasini bajaradi.

Belgining chastotali taqsimoti aniq va ishonchli tahlil uchun yetarli bo'lmasligi mumkin, matnning chuqur mazmuniy talqinni amalga oshirish uchun matn tarkibida uning umumiy mazmuniga juda kamdan-kam hollarda mos keladigan so'zlar chastotasini ham yodda tutish zarur. Yuqorida aytib o'tilganidek, biror bir so'z yoki ibora ham tahlilga tortilayotgan matn kontekstida

TILSHUNOSLIK

tadqiqotchining diqqat markazida bo'lishi zarur. Ana shundagina tadqiqotchi o'zi uchun kerakli ma'lumotlarni ola bilishi va aniq xulosalarga kelishi mumkin. Ammo kerakli miqdordagi so'zlar yoki iboralar bo'lmagan taqdirda ham, chastota tahlili muhim ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin va muallifning matnga yangicha qarash, matn mazmunini talqin qilishda o'ziga xos yondashuvni keltirib chiqaradi. Bu ko'pincha tarjima qilingan matnlarga taaluqli bo'ladi. Bunda tarjimonning tajriba va mahorati muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Umuman, boshqa konseptual sohada qo'llanilgan, hattoki ma'no jihatidan unga yaqin bo'lgan kalit so'z, yuqorida aytib o'tganimizdek, u yoki bu darajada matn yaxlitligini saqlab matn mazmunini boshqarib turadi. Ayrim matnlarda o'quvchining matn mazmuniga yondashuvi, izlanayotgan ma'lumotning kim yoki nima haqida ekanligiga ko'ra kalit so'z almashishi ham mumkin. Bu birinchi o'qishda e'tiborni jalb etmagan predmet yoki voqea-hodisa, keyingi o'qishda o'quvchi yoki tadqiqotchining diqqat markaziga aylanishi mumkinligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, ko'pincha matnning asosiy mazmunini aniqlashning asosiy vositasi sifatida belgining chastotali taqsimoti ko'rsatiladi. Bu, birinchi navbatda, matn atributining joylashuviga nisbatan ma'no faqat nisbiy namoyon bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi. Chastotani taqsimlash matnning eng muhim xususiyatlaridan birini - uning makon-zamon davomiyligini aniqlashga imkon beradi. Bu shuni anglatadiki, matn aniq yoki abstrakt shaklda ham makonda, ham zamon ichida aniqlanishi kerak. Matnning statistik tahlilida yuqorida aytib o'tilgan holatlarga e'tibor qaratish matnni lingostatistik jihatdan baholashga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пиотровский Р.Г. Информационное измерение печатного текста // энтропия языка и статистика речи. – Минск, 2016. -С.5-86.
2. Муҳамедова С., Сапарниёзова М. Матн лингистикаси. Тошкент, 2011, - Б 127.
3. <https://studfile.net/preview/5756376/page/33/> (17.05.2024)
4. <https://studfile.net/preview/5756376/page/8/> (17.05.2024)
5. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн тилшунослиги (дарслик). – Фарғона, 2021 – Б 210.